

QOBILIYAT VA UNING XUSUSIYATLARI

Qayumova Ibodat Xo'shmurodova

Denov tadbirkorlik va pedagogika

Instituti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Tel: +998888406204

Annotatsiya : Maqolada qobiliyat tushunchasi va uning xususiyatlari, insonda mavjud ekanligi borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar : qobiliyat , intellektual taraqqiyot, qobiliyatning yuzaga chiqishi, umumiy qobiliyat, qobiliyat turlari;amaliy,ilmiy,bdiiy,Albert Enshteyn, pedagogik qobiliyat.

Qobiliyat bu insonning o'z- o'zida paydo bo'lgan, shakllangan jarayondir. Qobiliyat insonda ham tug'ma, ham hayotiy orttirilgan bo'ladi. Tug'ma qobiliyat bu insonning ona qornidaligidayoq paydo bo'lib shakllanadi. Hayotiy orttirilgan qobiliyat esa insonning hayoti davomida o'z qiziqishlari orqali paydo bo'ladi. Umuman olganda qobiliyat insonning qiziqish jarayonidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Masalan:" Albert Eyshteyn o'rta maktabda uncha yaxshib o'qimaydigan o'quvchi hisoblangan va uning kelajakda genial bo'lishidan hesh narsa dalolat bermas edi " - degan ma'lumotlar ham yashaydi . Albert Eyshteynda ham tug'ma , ham hayotiy qobiliyat mavjud .Negaki, mativatsiya orqali u shuncha



nufuzli nomga ega bo'lgan . Uning yoshligida yaxshi o'qimagani uchun uni maktab ma'muriyati haydaydi. Uning Albertning nomini yanada qoralab, onasiga xat yozi qoldiradi. Oq qog'ozda Albertni qanchalar yomonlagan so'zlar tursa ham uning matonatli onasi o'g'lini buyuk inson bo'lishi uchun ham o'sha xatni “ Sizning o'g'lingiz daho, o'g'lingizni o'qitish uchun bizning maktabni kuchi yetmaydi”- degan misralar bilan o'qiydi . Bu so'zlar Albert uchun turtki bo'ladi. Shunday qilib bu voqea qahramonimizning qobiliyatini rivojlanishiga olib keldi. Albertda vaqtlar o'tishi bilan qobiliyatni shakllantirish yuzaga keldi. Albert Eyshteynga bergan ta'riflar ham qobiliyat bilan shakllanadi. Bir insonning bilim, aql borasida qobiliyati yo'qdir, lekin o'sha bilimi, aqli yo'q bolaning qobiliyati yo'q deyish har bir pedagogning eng katta xatosidir. Kimdadur aqliy jihatdan xususiyatlari rivojlangandur, ammo qobiliyat jihatdan rivojlangan insonlar ham bo'ladi. Ayni bir damda o'sha bilimli boladan, qobiliyatli bolaning ustun kelishi mumkin. Bunday holatlar turmush tarzimizda ham uchraydi. Lekin ba'zida o'sha bilim olishlikning asosiy vositasi sifatida ko'rishimiz mumkin. Har bir insonning qobiliyati qandaydur imkoniyat tarzida namoyon bo'ladi. Asosan faoliyatlarda yuzaga chiqadi. Qolaversa, qobiliyatli insonda qobiliyat va ko'nikma juda ham yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ulardagi ko'nikma va malaka ko'p qirrali va mukammallashgan holda bo'ladi. Insonlarda shakllangan har qanday qobiliyatlar turli- tuman bo'lib, insonga har xil talablar qo'yadi . Agar qo'ygan o'sha talablarga inson javob bera olmasa, shart-sharoitlar yaratolmasa, qobiliyat o'zini o'z o'rnida ko'rsatolmaydi . Natijada inson sinadi, qobiliytsizligidan o'zini ayblaydi. Bu holat



insonda bor qobiliyatlarni yo'qqa chiqaradi. Chunki, ishonch yo'q. Aslida o'sha insonda shu yo'q bo'layotgan qobiliyat bor edi, lekin insonning o'zi tufayli bori ham yo'q bo'ladi. Qobiliyat degan so'zning o'zi keng qamrovli tushuncha. Shu ma'nolar bilan birgalikda umumiy qobiliyat degan tushuncha ham bor. Bu qobiliyatda muvaffaqiyatli ravishda bilim olishni ta'minlaydigan shaxsning yuksak darajadagi intellektual taraqqiyoti tushunchalarini tushunamiz. Undan tashqari bu qobiliyatda faoliyat va faoliyatning hamma turlariga ,ayniqsa , amaliy faoliyatiga ham ta'sir qiladi.

Qobiliyatlar turli, rang -barang turlarni o'z ichiga oladi. Masalan : amaliy, badiiy, ilmiy, matematik, musiqaviy, pedagogik, ixtirochilik.....shu kabidir. Qobiliyat turlariga bundanda ko'proq turlarni keltirib , tasniflasak bo'ladi. Keling! Bittasiga, bitta qobiliyat turiga o'zgacha yondashaylik. Pedagogik qobiliyat...Bunaqa qobiliyatni o'zida mujassamlashtirgan inson juda ham e'tiborli, qattiqqo'l, kuzatuvchanlik, xususiyatlariga ega, darslarda juda ham e'tiborlilik, bolalarni sevishlik, ularga nisbatan talabchan, yordamchi qobiliyat sifatida yetakchilik, tashkilotchilik qobiliyatlari shakllangan. Qobiliyat rivojlangan insonlarda o'tkirlik, ravshanlik, dilkashlik, xayrixohligi, tafakkurning yaqqolligi aynan ko'zga tashlanadi. Qobiliyatli insonlar shu singari xususiyatlari bilan ajaralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Umumiy psixalogiya"332-333 sahifa.



2. Hozir.org.uz

3. Arxiv.uz

4. www.ziyo.uz

5. Sharq yulduzi jurnali 2009 2- son 552-b

6. J. Hasanboyeva, X.A.To'raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O'.Usmanov
"Pedagogika". —Toshkent "Noshir" 2011-yil 2256-bet

7. N.Atayeva, F.Rasulov, S.Hasanov "Umumiy pedagogika" — Toshkent
2011

8. R.Mavlonova, B.Normurodova, N.Rahmonqulova "Tarbiyaviy ishlar
metodikasi". —Toshkent "Tib-kitob" 2010-yil 200-197-bet

